

ISLOM TIBBIY ETIKASI VA TIBBIYOT

Mahamatova Baxtilaxon

Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti talabasi

Annotatsiya: Farhod Muazzamning aytishicha, Islom bioetika masalalari bo‘yicha babs va qaror qabilishi qandaydir vakuum ichida emas, balki, bir tarafdan, ma’lum ma’nodagi siyosiy-huquqiy tizim va, ikkinchi tarafdan, mavjud ijtimoiy qoidalar asosida bo‘ladi. Etikaning qiyin va murakkab tamoyillarini ta’minalash Islom va soha mutaxassilari hamkorligida amalga oshiriladi. Tadqiqotga jalb qilingan mutaxassislar so‘ziga ko‘ra, qonun, etika va ulamolarning fikrlari o‘rtasidagi munosabatlar Islom mamlakatlarida asosiy yigirmata bioetika muammolari ichida birinchi raqamli ustuvor masala hisoblanadi.



Kalit so’zlar: Etika va Islom ulamolarining fikri, Islomda tibbiy axloq, xarom va halol, tib hukmlari.

Kirish: Hayot va salomatlik Alloh Taoloning bandalariga bergen eng ulug’ nemati va qimmatli omonatidir. Bugun mana shu omonat va unga doir bazi hukmlar haqida gaplashsak, unut bo’lgan bazi qirralarni yana qayta esga olsak. Zero , eslash va eslatishda katta foyda bor. Ushbu maqolada tibbiyotga oid masalalar , xususan uning ajralmas qismi bo’lgan tibbiy tekshiruv va tashxis qo’yish hamda deyarli har kuni duch keladiganimiz - Jarrohlik amaliyotiga doir bazi muhim shariy hukmlarni savol-javob tarzida ko’rib chiqamiz.

Asosiy:

Savol: Insonning sog’ligiga javobgarligi qay darajada belgilangan ?

Javob: Insonning sog’ligiga e’tibor berishi lozimligi , javobgarligi farzi ayn, vojib darajasidadir.Sog’liq muhofazasi moddiy-ma’naviy halokatdan saqlanishning

asosiy omillaridan bo'lgani uchun mo'min-musulmon odam sog'lig'ini asrash uchun kerak bo'ladigan barcha choralarni ko'rishi shart. Bunday choralarning asosiyлари sifatida jismoniy tarbiya va vaqtı-vaqtı bilan o'tkaziladigan shifokor ko'rigini aytsa bo'ladi.

Savol: Shifokor ko'riganidan qachon o'tish kerak?

Javob: Sog'liqqa e'tibor vojib ekani aytildi. Dinimizda: "Vojibni bajarish uchun kerak bo'lgan narsa ham vojibdir" degan qoida mavjud. Shifokor ko'riganidan o'tish muddatlari tibbiyotda belgilangan me'yorlar bilan tartibga solinadi. Albatta shifokor ham o'z ishiga masulyat bilan yondashib , omonat berilgan bilimni suiistemol qilmasligi lozim.

Savol: Tibbiy tekshiruv davomida avrat hisoblangan joylarni ochishga to'g'ri kelsa ,nima qilish kerak?

Javob: Aslida, avrat hisoblangan joylarni nafaqat begonalar oldida , balki o'zi yolg'iz qolganida ham zaruratsiz ochish mumkin emas, lekin zaruriyat yuzasidan ochsa bo'ladi. Tibbiy tekshiruv ham mana shunday zaruratlardan hisoblanadi. Chunki kasallik avrat joylarda bo'lganda ochmasdan turib kasallikni aniqlab, davolab bo'lmaydi.

Savol: Ayol bemorni erkak shifokor , yoki aksincha , erkak bemorni ayol shifokor davolashiga to'g'ri kelsa , dinimizga muvofiq qanday yo'l tutiladi?

Javob: Bemorlik holati zarurat holati hisoblanadi, shuning uchun uning hukmlari boshqa holatlar hukmlaridan keskin farq qiladi. Oddiy hollarda ruhsat berilmagan narsalarga zarurat tug'ilganda ruhsat beriladi. Shundan kelib chiqib , bemor ayolga qarash uchun yetarli bilim va tajribaga ega bo'lgan ayol shifokor topilmasa , u holda unga erkak shifokor qarashiga ruhsat beriladi.

Savol: Islom jarrohlik amaliyotiga ruxsat beradimi ?

Javob : Ha, Albatta. Alloh taolo aytadi: kim biror jonni o'ldirmagan va yerda buzg'inchilik qilib yurmagan odamni o'ldirsa , demak, go'yo barcha odamlarni o'ldiribdi va kim unga hayot ato etsa , demak, go'yo barcha odamlarga hayot beribdi.... Ushbu oyatda Alloh taolo inson hayotiga taajovuz qilish gunohini bayon qilish bilan birga , insonga hayot berish ajri haqida ham so'z yuritmoqda. Rasulullohning boshlaridan qon oldirganlari ham bayon etilgan .Bu esa jarrohlik amaliyotining kichikroq ko'rinishidir.

Savol: Miya ishlashdan to'xtagan, lekin yurak ishlayotgan bo'lsa , bunday inson o'lgan hisoblanadimi?

Javob : Yo'q , O'limgan hisoblanadi. Yurak urushi uning tirikligining belgisidir

Savol : Sun'iy a'zolar o'rnatish hukmi qanday?

Javob: Bular Allohnинг bandalariga qilgan inomidir . Ulardan bemolol foydalanish mumkin.

Islom o'z xalqining farovonligi va salomatligini birinchi o'ringa qo'yadi. Shuning uchun ham musulmonlar salomatlik nuqtai nazardan Alloh taolo omonat qilgan tanalariga g'amxo'rlik qilishlari shart. Musulmonlar kasallikka yo'liqqanda davo topishlari shart. Sog'lom tana aqli ongni yaratadi, shuningdek, sog'lom tana bilan ibodat qilish va kundalik vazifamizni bajarish uchun qulay bo'lamic. Alloh taolo bergen omonatlarini asrab- avaylash har bir musulmonga farzdir.



Xulosa: Musulmon sifatida biz tushunishimiz kerakki, kasallikdan qutulish Allohnинг quadratidir. Qora sehr yoki Alloh taqiqlagan boshqa usullardan foydalanish kabi islomiy tamoyillarga zid bo'lмаган davoni topishga harakat qilishimiz kerak.

Dorilardagi halol va haromni tushunish juda muhim bo'lib, salomatlikni islom ta'limotiga ko'ra davolash mumkin bo'lishi uchun barcha tomonlarga etibor qaratiwimiz lozim. Shunday qilib, bugungi kunda tibbiy davolanish kengayib borar ekan, axloqiy masalalar yanada rivojlanadi. Bu kabi masalalar bo'yicha musulmonlar birinchi navbatda Quronga murojat qilishlari lozim. Alloh bizga sobidqadam abadiy amal qilish uchun umumiy qoidalarni beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. [http://ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА РАҮАМЛАШТИРИШ](http://ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА РАҶАМЛАШТИРИШ): Сиддиқов Нурали Нишоналиевич, ТДСИ Ижтимоий фанлар биоэтика курси билан кафедраси катта ўқитувчиси НН Сиддиқов - Научно-практическая конференция, 2022
2. <http:// СОЦИАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ МОЛОДЫХ СОБСТВЕННИКОВ В СФЕРЕ СРЕДНЕГО И МАЛОГО БИЗНЕСА НН> Сиддиқов - Социосфера, 2020
3. <http://https://uz.eferrit.com/islomda-tibbiy-axloq/>
4. <http://https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/islom-tibbiyatda-ilk-penisilinni-kashf-etgan>
5. <http://https://qadriyat.uz/dolzarb/225-tib-ukmlari>
6. <http://https://sof.uz/uz/post/islom-dunyosidagi-eng-asosiy-10-ta-bioetika-muammolari>